

The Current Status Of Professional Training Of Higher Educational Students In General Secondary Educational Institutions

Abdullayev Farhodbek Hasanovich

Head of Department of Preschool and
School Education of Andijan Region

Abstract

This article presents opinions on the practical situation of vocational training of high school students in general secondary educational institutions, and the importance of subjects. Along with this, opportunities for vocational training are highlighted.

Keywords: knowledge, skill, competence, competence, opportunities, modern methods, interactive methods.

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida yuqori sinf o'quvchilarini kasbga tayyorlashning amaliyotdagi ahvoli, fanlarning ahamiyati yuzasidan fikrlar keltirilgan. Shu bilan birgalikda, kasbga tayyorlash imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, imkoniyatlari, zamonaviy usullar, interfaol metodlar.

Mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida yuqori sinf o'quvchilarini kasb- hunarga tayyorlash va yoshlarning ijtimoiy, iqtisodiy muammolarini hal etish, band bo'lmagan, ishsiz aholini mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb- hunarlarga tayyorlashni tizimli yo'lga qo'yish hamda bandligini ta'minlash orqali kambag'al qatlamga tegishli bo'lgan aholini shu toifadan chiqarish ustuvor vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yilning yanvar-iyun oylarida mamlakatimizda ishsizlik darajasi 13,2 foizni tashkil etib, ish bilan ta'minlanishga muhtojlar soni 1,94 mln. nafarga ortgan. Shundan yoshlar orasida ishsizlik darajasi 20,1 foizni tashkil etadi. Shubhasiz, ishsizlik darajasini ayollarga nisbatan qaraydigan bo'lsak, bu ko'rsatkich yuqori bo'lishi tabiiy, albatta.

Ma'lumki, davlatimiz tomonidan ijtimoiy ko'makka muhtoj aholi, boquvchisini yo'qotgan yolg'iz ayollar, muayyan kasb- hunarga ega bo'lmagan yoshlar, pandemiya tufayli nochor iqtisodiy

vaziyatga tushib qolgan oila va shaxslarga ko'rsatilayotgan ijtimoiy yordam, ajratilgan mablag'lar, imtiyozli kreditlar bir muddat ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini ta'minlab turgan bo'lsada, biroq ularning o'z ijtimoiy holatini o'zgartirishga rag'bat tarzidagi mexanizm sifatida o'zini oqlamayotganligi kuzatilmoqda. Aksariyat hollarda bu ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam manzilli emas, balki korrupsion sxemalar orqali amalga oshirilayotgani, ajratilgan mablag'lar va imtiyozli kreditlarni olgan aholi, ayniqsa ayollar bu mablag'lardan norasional foydalanayotgani, ya'ni shaxsiy ehtiyojlari uchun sarflab, davlat tomonidan berilayotgan ko'makdan uzluksiz umidvor bo'lish, shuningdek ularda "davlat menga yordam berishi shart", qabilidagi kayfiyat paydo bo'layotgani ko'zga tashlanmoqda. Natijada davlat tomonidan aholining aynan shu toifasini kambag'allik va u bilan bog'liq kayfiyatdan xalos qilishga yo'naltirilgan yangi mexanizmga ehtiyoj tug'ilmoqda.

Yevropaning ko'plab rivojlangan davlatlarida ijtimoiy shartnoma mexanizmini oqilona yo'lga qo'yish orqali ko'pgina oilalar, alohida shaxslarni inqirozdan olib chiqish

bo'yicha ijobiy tajribalar orttirilgan. Shu bois, bugungi kunda ijtimoiy shartnoma qiyin iqtisodiy vaziyatga tushib qolgan aholining ushbu vaziyatdan chiqib ketishiga ko'maklashadigan va rag'batlantiradigan mexanizm hisoblanadi. Mazkur mexanizm - davlat va fuqaro, davlat va oilalar o'rtasida o'zaro harakatlarning yakka tartibidagi yo'nalishini belgilash maqsadida ishlab chiqiladigan rejaga asoslangan bitimdir.

Ma'lumki, kambag'allik yurtimizda ko'p yillar "yopiq mavzu" bo'lib kelgan. 2020 yil 24 yanvar kuni Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev aholining 4-5 millioni kambag'al ekani haqida ochiq-oydin gapirib, mamlakat tarixida ilk marotaba kambag'allikni qisqartirishni ustuvor vazifa sifatida belgilab berdi. Ya'ni, "Kambag'allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko'paytirish, yoppasiga kredit berish, degani emas. Buning uchun, eng avvalo, aholini kasbga o'qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissini uyg'otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarini o'qitish, sifatli davolanish, manzilli nafaqa to'lash tizimini joriy qilish kerak", – deb ta'kidlandi.

Shu bois, mamlakatimizda qashshoqlikni tugatish, kambag'allikka qarshi kurashish, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida hukumat tomonidan ijtimoiy shartnomaga ko'proq e'tibor qaratish zaruriyati davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tomonidan 2020 yilning 8 oktyabr kuni jamiyatda ayollar va yoshlarning rolini oshirish hamda bandligini ta'minlash chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ham tilga olindi. Shuningdek, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida moddiy yordam va ko'makka muhtoj oilalar ro'yxati aks etgan "Temir daftar" kabi alohida har bir mahalla, tuman, shahar va vviloyat kesimida "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari" shakllantirilishi va unda "ijtimoiy

shartnoma" tajribasini keng qo'llash maqsadga muvofiqligi ham belgilab berildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 iyundagi "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4742-son qarori, 2020 yil 26 martdagi "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5975-son Farmoni hamda "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4862-son qarori aholini tadbirkorlik faoliyatiga yanada keng jalb qilish, o'z-o'zini band qilishning qo'shimcha shart-sharoitlarni yaratish hamda o'z-o'zini band qilishni rag'batlantirish bo'yicha vazifalarning belgilanganligi mazkur loyiha mavzusining dolzarbligini bildiradi.

Iqtisodiy o'sish va rivojlanishning yuqori sur'atlariga erishish masalasi doimo iqtisodchilarning muhokama e'tiborida bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Cheklangan resurslar va cheksiz ehtiyojlar o'rtasidagi qarama-qarshilikni bartaraf etish va aholi turmush darajasini oshirish imkonini beruvchi iqtisodiy o'sish modelini izlash iqtisodiy nazariyaning eng muhim vazifasidir.

Zamonaviy olimlarning fikricha, daromadlarni taqsimlash tabiati bilan iqtisodiy o'sish o'rtasida yaqin bog'liqlik mavjud. Bu, birinchi navbatda, aholi o'rtasida daromadlarning kamayishi bilan mehnat resurslari sifatining keskin yomonlashuvi bilan bog'liq, ikkinchidan, aholining kam maosh oluvchi toifalari daromadlari darajasining oshishi mahalliy ishlab chiqarishning rivojlanishini, investisiya faolligini va bandlikning o'sishini rag'batlantiradi, uchinchidan, daromadlarni taqsimlashga bir tekis yondashish

psixologik jihatdan muhim ijobiy omil hisoblanadi .

Aksariyat iqtisodchilarning fikricha, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati fuqarolarning ijtimoiy ahamiyatga ega ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoitlar yaratish, aholi turmush darajasining ijobiy dinamikasini ta'minlash maqsadida amalga oshirilishi, pirovardida bu mamlakatning o'zi rivojlanishi uchun aniq shartga aylanadi¹.

Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatdan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda.

“Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi”-, deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Hududlarda yashaydigan yoshlar zerikkanidan nima qilishni bilmasdan bemaza ishlarga berilishi, bezorilik, jinoyat yo'liga kirishi, zararli oqimlarga ko'shilib ketishi mumkinligi hammani bezovta qiladi, albatta.

Yoshlarni kasb-hunarga o'rgatish bilan bir qatorda, ish bilan ta'minlash uchun avvalo ular o'rtasida tadbirkorlikni keng rivojlantirish bu borada yangi imkoniyatlar yaratish maksadga muvofiqdir.

References

- Azixodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: Cho'lpon, 2005.
- Ahmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari. – Toshkent: O'qituvchi, 2001.
- Барг М.А. Категории и методы исторической науки. – М., 1984.
- Ganieva M., Fayzullaev D. Zamonaviy o'qitish vositalarining pedagogik

texnologiyalari to'plami. – T.: Iqtisodiyot, 2013. – 95 b.

Гора П.В. Методические приемы и средства наглядного обучения истории в средней школе. – М., 1971.

¹ Селезнева И.Г., Сухова А.С., Ляпина И.Ю. Влияние экономического роста на показатели уровня и качества жизни

населения//Сервис Plus. 2018. Т.12. №3. С. 79-86. URL: <https://cyberleninka.ru/>